

XORIJIY SO`Z-LEKSIKA O`RGANISHNING SAMARALI USULLARI TAHLILI

*Gulyuz Tursunova,
Webster University in Tashkent MA TESOL program,
Email:gulyuztursunova183@gmail.com
Tel: +998931915453*

Annotatsiya. Xorijiy tilni o'rganuvchilar o'rganayotgan tilning leksikasini o'rganish uchun juda ko'p vaqt sarflashadi. So'zlarni o'rganish uchun darsliklarda yetarlicha ma'lumot mavjud bo'lishiga qaramasdan talabalar o'rgangan so'z va iboralarni real vaziyatlarda ishlatalishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shundan kelib chiqib tezisda leksika o'qitish metodi- kasi va u xaqidagi tilshunoslar fikrlari berilgan.

Kalit so'zlar: metodika, leksika, ibora, termin (atama), terminologiya, so'z birikmali, idiomalar, ingliz tili, yondashuv, tamoyillar, lug'at.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib, ta'limgoh sohasida keng qamrovli islohotlar olib borilishi natijasida, zamonaviy talablar asosida ta'limgoh sifatini oshirish tizimi yaratildi. Shu jumladan, chet tillari o'qituvchilarini xalqaro malaka talablariga asoslangan milliy tizim yaratildi. Shu bilan bir qatorda chet tillari o'qituvchilarining darslarini ilmiy jihatdan sifatli tashkil etishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarni ta'limgoh jarayoniga tadbiq etish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Leksemalarni o'qitish uchun zarur tarkibiy qismlar sifatida iboralar taklif etiladi. Endi so'zlarni birlashtirib, jumlalarni yaratish uchun turli xil usullarni ko'rib chiqamiz.

So'z birikmalari: J.M.Sinclair kuzatishicha, so'zlar juft va guruh bo'lib tanlanishi zarur, masalan, *hard work, hard luck, hard facts* va shu kabilar. Bundan ko'rinish turibdiki, kuchli so'z birikmalari boshqa so'zlarni jalb qiladi. M.MacCarthy tillar kuchli birikmalarga to'la ekanligini va ushbu so'z birikmalari lug'atshunoslikning markaziy yo'nalishi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. J.Nattinger ta'kidlashicha, co'z birikmalari nafaqat qatnashgan so'zlarni yodlashga, balki so'zning semantik sohalarini aniqlashga yordam beradi.

Idiomalar va yasama iboralar: R.Carter idiomalarni cheklangan birikma deb ta'riflaydi, chunki ularni so'zma-so'z, lug'aviy ma'nolarini anglab bo'lmaydi, masalan, *have cold feet, to let the cat out of the bag*. R.Carter ta'kidlashicha, boshqa ma'lum so'zlar ham bor, masalan, *far as I know, as a matter of fact* va *if I were you*. Ular idioma emas, balki semantik va tarkibiy jihatdan cheklangan bo'lib, ular R.Carter fikriga ko'ra, boshqa tilshunoslar tomonidan turg'un iborali va muzlatilgan shakllar deb nomlagan. M.Maccarty va F.Odell idiomalarni aniq yoki ravshan bo'lmagan ma'nolar bilan tuzilgan iboralar sifatida belgilaydilar.

O'qitish usullari

O'quvchilar bilishi kerak bo'lgan hamma narsani o'rgatish mumkin emas, chunki leksik elementlarning soni cheksiz ko'rindi. Shuning uchun, lug'atni faqat aniq va ravshan usullar bilan emas, balki leksikani o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni tanlash kerak. O'quvchilarga o'z-o'zini o'rganish strategiyasini ishlab chiqishda ongini oshirishga yordam beradigan turli mashg'ulotlardan foydalanish kerak.

O'qituvchilarimiz leksika o'rgatish jarayonida talabalarning extiyoj va zaruriyatlarini (learners' needs) e'tiborga olmasa xar qanday zamonaviy usuldan foydalanmasin ular natija bermaydi. O'qituvchilarimizning oldida turgan birinchi vazifa bu - talabalar ko'zlagan maqsadlaridan, xohish-istiklaridan, ularning qaysi sohada faoliyat yuritishidan va tilning milliy-madaniy xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda leksika tanlashdan iboratdir. Bu usul til o'rganishga yanada ishtiyoqni oshiradi va ularni amaliyotda qo'llashda qiyinchilik tug'dirmaydi.

Lug'at va frazeologiya metodologiyasida umumiyligi metodologiyadan tashqari

quyidagi tamoyillar ham mavjud:

- leksika va grammatika (so'zning leksik va grammatik ma'nolarini taqqoslash);
- tizim (leksik paradigmni barcha elementlarini hisobga olish);
- kontekstual (so'zni uning sintagmatik birikmalarida yetarlicha kontekstda ko'rib chiqish);
 - leksik – sintaktik (mos so'zlar va iboralar).

Ta'lism jarayonida amalga oshiriladigan barcha bu kabi tamoyillar o'quvchilarga so'z va frazeologizmning mohiyatini, ularni so'zning semantikasini bilishimiz mumkin bo'lgan kontekstda ko'rib chiqish zarurligini tushinishni ta'minlaydi.

Leksik va frazeologik mashqlar talabalarni so'z boyligini oshirishga tayyorlaydi, shuning uchun lug'at va frazeologiyani o'rganayotganda so'zlarni muayyan guruhlarga bo'lib o'rganish samarali natija beradi. Quyidagi mashqlar bunga yaqqol misoldir;

- belgilang (ko'rsating, tagiga chizing), masalan, polisemantik so'zlar (dialekt so'zlar, iboralar);
- so'zlarni sinonimlarini tanlang (antonimlar, so'z birikmalar);
- izohli lug'atdan dialektik (kasb yoki sohaga oid) so'zlarni toping;
- tanlangan so'zlarni (o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan) qaysi ma'noda ishlatilishini toping va ular yordamida har xil vaziyatlarga mos gaplar tuzing.

Yuqorida tilshunoslarning fikriga ko'ra yana bir usul, ya'ni, tarjimasiz usul bilan ham so'zlarni o'rgatish yaxshi samara beradi. Ushbu usulni qo'llash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: yangi so'z bayon, rasm, matn audiotasmada eshittirilib yoki namoyish qilinib yuqorida berilgan mashqlar bilan topshiriqlar beriladi.

Har xil sohaga oid terminlar bilan ishslashda leksik materiallarni o'zlashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- yangi so'z bilan tanishish;
- terminlarni (atamalarni) nutq jarayonida qo'llay boshlash (dastlabki bosqichda).

Dastlabki bosqichda terminning shakli, ma'nosи va qo'llanilishi yuzasidan

ma'lumot beriladi. Terminning ma'nosini ochish (tizimlashtirish) an'anaviy usul bo'lib, metodikada u maxsus bosqich hisoblanmaydi. O'rganilayotgan tildagi sohalarga oid terminlarni o'rganishdan oldin ona tilidagi termin xaqidagi ma'lumot beriladi.

Masalan, jurnalistika sohasida tahsil olayotgan talabalar bilan o'tkazilgan tajriba mashg'ulotlarida terminlarni o'qitishda ularni ingliz tili va o'zbek tili terminlari bilan taqqoslab o'rganish yaxshi natijalar berishi kuzatildi. Terminlar taqqoslab o'rganilganda quyidagi xususiyatlар aniqlandi:

- o'zbek tilidagi terminga ingliz tilidagi ma'nosini qisman to'g'ri kelishi;
- jurnalistikaga oid o'zbek tilida uchramaydigan so'zlar mavjudligi;
- inglizcha so'zning talaffuzi o'zbek tilidagi so'zning talaffuziga mos kelmasligi;
- o'zbek tiliga ingliz tilidan o'zlashgan terminlar ma'no jihatidan farq qilinishi;
- ingliz tili kabi o'zbek tilida ham bir necha komponentli terminlar mavjudligi va h.k. Albatta biz terminlarni o'rgatganimizda talabalarni sohaga tegishli va til borasidagi bilim ko'nikmalari hamda tajribalarini hisobga olishimiz zarur.

Chet tili (ingliz tili) o'qitishda Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish usulining afzalliklari

Ingliz tili darslarida Internetdan foydalanish bir qator didaktik muammolarni samarali hal qilishga imkon beradi. Masalan:

- talabalarning aqliy qobiliyatlarini oshirish;
- passiv talabalarni ishlashga jalb qilish;
- darslarda zamonaviy ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- ilgari mavjud bo'lmagan materiallardan foydalanish;
- autentik materiallardan foydalanish;
- talabalarni mustaqil ishslashga o'rgatish;
- o'quv jarayonini intensivligini oshirish;
- boshqa mamlakatlar va madaniyatlar vakillari bilan jonli aloqa o'rnatish;

- til ko'nikmalari(tinglash, o'qish, gapishtirish va yozish)ni shakllantirish va h.k.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib ingliz tilida leksika va terminlarni o'rgatishda zamonaviy lingvovidaktik yutuqlarni hisobga olish, ingliz tilida terminlarning talabalarga zamonaviy usullardan foydalanib o'qitish, shuningdek, sohaga oid darsliklarni yaratish zarurligi maqsadga muvofiqligi ingliz tili terminlarini o'qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Halliday M.A.K. Language as a social semantic. - London: Edward Arnold. 2018, 1-3.
2. Lewis V. The lexical approach: the state of EFL and a way forward. Hove: Language teaching publications. 2013. 99.
3. Widdowson H.G. Knowledge of language and ability for use. Applied linguistics.2019. 10(2), 128-137.
4. Wills D. Grammar and lexis: some pedagogical implications. London: Routledge. 2013.